

“TBC Bank” ATB yagona aksiyadorining 11.11.2021 yildagi qarori natijalari

№	Kun tartibidagi masalalar	Ovoz berish natijalari	Qaror matni
1.	Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali Bankning ustav kapitalini oshirish	Tarafdorlar - 263 986 927 ovoz, 100% Qarshi - 0 ovoz, 0% Betaraf qolganlar – 0 ovoz, 0%	<p>Bankning ustav kapitali umumiy qiymati 174 215 126 000 so‘m bo‘lgan, nominal qiymati 1000 so‘m 174 215 126 dona qo‘shimcha oddiy, egasining nomi yozilgan va hujjatsiz aksiyalarni joylashtirish hisobiga oshirilsin.</p> <p>Nominal qiymati 1000 so‘m bo‘lgan umumiy qiymati 174 215 126 000 so‘m 174 215 126 dona qo‘shimcha oddiy, egasining nomi yozilgan va hujjatsiz aksiyalar chiqarilsin.</p> <p>Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish uchun quyidagi shartlar belgilansin:</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish muddati: aksiyalarni joylashtirish aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yil ichida amalga oshiriladi.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi: aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab birinchi kun.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirishning tugash sanasi: aksiyalar chiqarilishida oxirgi aksiya joylashtirilgan kun, lekin aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yildan kechiktirmagan holda.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish usuli: Ushbu chiqarilayotgan aksiyalar Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasiga yopiq obuna bo‘yicha joylashtiriladi.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish tartibi: Aksiyalarni joylashtirish tashkil etilmagan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi:</p> <p>Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga ushbu chiqarilayotgan aksiyalardan 87 107 563 dona oddiy aksiyalari;</p> <p>Xalqaro moliya korporatsiyasiga ushbu chiqarilayotgan aksiyalardan 87 107 563 dona oddiy aksiyalari.</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish anderrayterlar ishtirokisiz amalga oshiriladi.</p> <p>Ushbu chiqarilayotgan aksiyalarning joylashtirilgan aksiyalarini imtiyozli ravishda sotib olish huquqini amalga oshirish tartibi: Ushbu chiqarilayotgan aksiyalar Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasiga yopiq obuna bo‘yicha</p>

			<p>joylashtirilganligi sababli, joylashtirilgan aksiyalarni sotib olishning imtiyozli huquqi ta'minlanmagan.</p> <p>Aksiyalar qiymatini to'lash shartlari va tartibi: Aksiyalar qiymatining to'lovi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mda pul mablag'lari orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Aksiyalar qiymatini pul mablag'isiz to'lash ko'zda tutilmagan.</p> <p>Aksiyalar qiymatini to'lash naqd pulsiz shaklda bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.</p> <p>So'mdagi hisob raqam rekvizitlari: 2983 0000 2000 0118 0001, "TBC Bank" ATB</p> <p>Bank kodi: 01180</p> <p>Valyuta hisob raqam rekvizitlari:</p> <p>Beneficiary: JSCB TBC BANK</p> <p>Tax number: 207318613</p> <p>Beneficiary's address: 118/1 AMIR TEMUR AVENUE, YUNUSABAD, TASHKENT, REPUBLIC OF UZBEKISTAN</p> <p>Beneficiary's Account: 21002840200001180001</p> <p>Beneficiary's bank: IPAK YULI JOINT-STOCK INNOVATION COMMERCIAL BANK TASHKENT, UZBEKISTAN</p> <p>SWIFT: INIPUZ22</p> <p>Aksiyalarni joylashtirish qiymati: 1 149,27 so'm.</p> <p>Aksiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish: Aksiyalar chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bankning korporativ veb-saytida www.tbcbank.uz va qimmatli qog'ozlarni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida www.openinfo.uz - Yagona korporativ axborotlar portalida joylashtiriladi.</p> <p>Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmay qolgan deb e'tirof etilgan taqdirda, emitent tomonidan aksiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi: Aksiya chiqarilishi amalga oshmay qolgan deb e'tirof etilgan taqdirda:</p> <p>aksiyalar chiqarilishi amalga oshmay qolgan deb e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida muhim fakt to'g'risidagi ma'lumotlar (aksiya chiqarilish amalga oshmay qolgan deb e'tirof etish, muhim fakt №28) bankning www.tbcbank.uz korporativ veb-saytida va qimmatli</p>
--	--	--	--

			<p>qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining www.openinfo.uz rasmiy veb-saytida - Yagona korporativ axborot portalida joylashtiriladi;</p> <p>aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida aksiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi.</p>
2	Bank aksiyalarini qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash	<p>Tarafdorlar - 263 986 927 ovoz, 100%</p> <p>Qarshi - 0 ovoz, 0%</p> <p>Betaraf qolganlar – 0 ovoz, 0%</p>	<p>“TBC Bank” ATB aksiyalarini qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi qaror tasdiqlansin.</p> <p>Vaxtang Butsxrikidzega “TBC BANK GROUP PLC” kompaniyasining yagona aksiyadori nomidan Bank aksiyalarini qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi qarorni imzolash huquqi berilsin.</p>